



BOLALARDA NUTQ BUZILISHI VA KELIB CHIQISH SABABLARI

Uralova Guljahon*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali**Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti,**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kur 2108-guruh talabasi*

I.P Pavlov ta'limotiga muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixologik funksiyasini, uning ikkinchi signal tizimini o'zida namoyon etadi. Bu esa signallarning signali sanaladi.

Annotatsiya: Tug'ilish - bu yangi hayotning boshlanishi. Bu nima bo'ladi, asosan, kichkina odam qanday rivojlanishiga bog'liq. Shuning uchun ota-onalar, ayniqsa, chaqaloq tug'ilishidan oldin ham, keyin ham uning kelajagi uchun javobgar bo'lishlari kerak. Buning uchun ular, ayniqsa, erta davrda bolalarning rivojlanish bosqichlarini tavsiflovchi maxsus adabiyotlarga qiziqishlari kerak.

Аннотация: Рождение – это начало новой жизни. Каким он будет, зависит в основном от того, как будет развиваться маленький человек. Поэтому родители должны нести ответственность за будущее малыша, особенно до и после его рождения. Для этого их следует заинтересовать специальной литературой, описывающей этапы развития детей, особенно в раннем периоде.

Abstract: Birth is the beginning of a new life. What it will be depends mainly on how the little person develops. Therefore, parents should be responsible for the future of the baby, especially before and after it is born. For this, they should be interested in special literature that describes the developmental stages of children, especially in the early period.

Kalit so'zlar: nutq, grammatik, pozitsiya, og'zaki, leksik, savodxonlik, lingvistik, zaiflik, nutq mexanizmi, qaysarlik, nomuvofiqlik, predmetli-o'yin, sindrom, potologik o'zgarish.

Ключевые слова: речь, грамматический, позиция, устный, лексикон, грамотность, лингвистический, слабость, речевой механизм, упрямство, непоследовательность, предметная игра, синдром, патологическое изменение.

Keywords: speech, grammar, position, oral, lexical, literacy, linguistic, weakness, speech mechanism, stubbornness, inconsistency, subject-game, syndrome, pathological change.

Kirish: Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nutq buzilishlari bolaning hayotining birinchi kunlaridanoq deyarli aniqlanishi mumkin. Avvalo, bu chaqaloqning monoton zaif yig'lashi bilan ko'rsatiladi. Barchamizga ma'lumki, nutqning to'g'ri rivojlanishi ayrim parvarishni hamda e'tiborni talab qiladi. Nutqda paydo bo'la





boshlagan ba'zi kasalliklarga o'z vaqtida diqqat qilinmasa, u keyinchalik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bolalar nutqi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim obyekt bo'lib, uning to'g'ri tarbiya topishi, takomilga yetishi uchun ota-onalar hamda pedagoglar hamkorligi birdek lozimdir.

Asosiy qism: Nutq buzilishi bo'lgan bolalar – bu normal eshitish va buzilmagan aql bilan nutq rivojlanishida og'ish bolgan bolalar. Nutq buzilishlari xilma-xil bo'lib, ular talaffuzining buzilishi, nutqning Grammatik tuzilishi, lug'atning kambag'alligi, shuningdek, nutq tezligi va ravonligining buzilishida namoyon bo'lishi mumkin. Og'irlik darajasiga ko'ra, nutq buzilishlarini davlat mакtabida o'qishga to'sqinlik qilmaydiganlarga va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan og'ir kasalliklarga bo'lish mumkin.

Og'ir nutq buzilishlarida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o'qitish mumkin emas, shuning uchun og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalari va mакtablar mavjud. Og'ir nutq buzilishining asosiy belgisi - bu oddiy eshitish va buzilmagan aql bilan og'zaki aloqa vositalarining aniq cheklanishi. Bunday kasalliklardan aziyat chekadigan bolalarda nutq zahirasi kam, ba'zilari esa umuman gapirmaydi. Bu holatda boshqalar bilan muloqot juda cheklangan. Ushbu bolalarning aksariyati ularga aytilgan nutqni tushunishga qodir bo'lismiga qaramay ularning o'zлари boshqalar bilan og'zaki muloqot qilish imkoniyatidan maxrum. Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyaiga olib keladi: ular tengdoshalari bilan o'yinlarda, ijtimoiy faoloiyatda ishtirok etish imoniyatidan to'liq yoki qisman maxrum. Bunday sharoitlarda muloqotning rivojlanmayotgan ta'siri minimaldir. Shu sababli, aqliy rivojlanish uchun yetarli imkoniyatlarga qaramay, bunday bolalar ikkilamchi aqliy zaiflikni boshdan kechirishadi, bu ba'zida ularni noto'g'ri intellektual jihatdan past deb hisoblashga asos beradi. Bu taassurot savodxonlikni o'zlashtirishda, arifmetik masalalarni tushunishda kechikish bilan kuchayadi. O'gir nutq buzilishlari uchun harakterli xususiyat uning umumiyoq rivojlanmagani bo'lib, u nutqning tovush va leksik, grammatik, jihatlarining pastligida namoyon boladi. Natijada og'ir nutq buzilishi bo'lgan bolalarning aksariyatida fikrlash, nutqni umumlashtirish, o'qish va yozishda qiyinchiliklar mavjud.

Bolalardagi mavjud nutqiy buzilish - ularning ayrim harflarni talafuz eta olmasliklarida, nutq jarayonida duduqlanish holatining mavjudligida, ayrim so'zlarni aytishga nisbatan qo'rquv, so'z mohiyatini garchi tushuntirilgan bolsa-da anglamaslik va shu kabi boshqa holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. O'z tasnifiga ko'ra, bolalarda mavjud nutqiy buzilish ikki toifaga bo'linadi:

- A) Biologik buzilish;
- B) Lingvistik buzilish[3].



Yuqorida nomlari qayd etilgan bolalardagi nutqiy buzilish tabiiy yoki orttirilgan bo'lishi bilan xarakterli hisoblanadi. Biologik buzilish bevosita bola organizmidagi kasalliklar o'laroq mavjud bo'ladi, ya'ni miyaning qaysidir qismida mavjud nuqson tufayli bolaning nutq buzilishi namoyon bo'ladi.

Shuningdek, nutqning funksional buzilishlariga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1. Bola organizmiga zararli ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq buzilishlar.
2. Umumiy, jismoniy zaiflik, chala tug'ilish yoki to'la shakllanmagan homilalik bilan shartlangan yetishmaganlik.
3. Ichki organlarning turli kasalliklari, raxit, moddalar almashinuvining buzilishi.

Bolalardagi nutq buzilishlarini baholashda keskin davrlarni hisobga olish shartdir, qaysiki bunda nutq tizimining u yoki bu tarkibiy qismini bir muncha jadal rivojlanishi qachon sodir bo'ladi, nutqiy faoliyatning, nerv mixanizmi jarohatlanishning yuqori darajadagi xafvi nima nima bilandir bog'liq ravishda paydo bo'lishini o'rganish osonroq kechadi.

Nutq funksiasining rivojlanishida 3ta keskin davr ajratiladi:

Birinchi davr (hayotining 1-2-yili). Bu davrda nutqning dastlabki urinishi shakllanadi va nutqiy rivojlanish boshlanadi, aloqaga kirishga asos solinadi va uning harakatlanuvhchi kuchi bilan muloqotga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu yoshda nutq zonalarining bir muncha jadal rivojlanishi sodir bo'ladi, xususan, Broka zonasasi. Uning rivojlanishida bola hayotining 14-18 oylari keskin davr hisoblanadi. Bu davrda hattoki sezilarsiz tuyulgan noqulay omillar bola nutqining rivojlanishida o'z aksini ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchchi davr (3 yosh) bog'langan nutq jadal rivojlanadi. Vaziyatli nutqdan kontekstli nutqqa o'tiladi. Bu markaziy nerv sistemasi (MNS) ichida katta muvofiqlikni talab etadi (nutq-harakat mexanizmini, diqqatni, xotirani va h.k.). MNS ishida vujudga keluvchi ayrim nomuvofiqlik xulqdagagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, qaysarlik, negativizm va h.k. lar kuzatiladi. Bularning hammasi nerv tizimining zararlanishiga bo'lgan xafvni belgilaydi. Duduqlanish, mutizm yuzaga kelishi mumkin, nutq rivojlanishining orqada qolishi kuzatiladi. Bola nutqiy muloqotga kirishishdan bosh tortadi, kattalar qo'ygan talablariga qarshi qat'iy norozilik bildiradi.

Uchinchi davr (6-7 yosh) yozma nutq rivojlanishining boshlanishi. Bolaning markaziy nerv sistemasi (MNS) ga yuklama oshib boradi. Bolaga kattaroq talablar qo'yilganda duduqlanish hosil bo'lishi bilan nerv faoliyatida "portlash" yuz beradi.

Bola nutqining normal rivojlanish uchun muloqot ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi, ijobiy-emotsional tusda kechishi kerak. Unga tovushlarni shundaygina eshitish kamlik qiladi (radiomagnitofon, televizor). Dastlab ma'lum yosh davri uchun xarakterli asosda kattalar bilan muloqot qilish lozim. Bolani kattalar bilan muloqoti

shaklining o'zgarishi nutq rivojlanishiga turtki bo'ladi. Demak, hayotining birinchi yili uchun xarakterli bo'lgan emotsional muloqotni 2-3 yoshlarda predmetli- harakatga almashtirishi uning nutqi rivojlanishiga yaxshigina turtki bo'lib xizmat qiladi. Agarki, bunday o'zgarish yuz bermasa u holda nutq rivojlanishida orqada qolish yuzaga keladi.

Bolada predmetli-o'yin faoliyati jarayonida to'plangan taassurotlar nutq rivojlanishiga dastlabki zamin bo'ib xizmat qiladi.

Bola nutqining rivojlanishi tashqi noqulay sharoitlar natijasida kechikadi va buziladi: ijobiy emotsional muhitning yo'qligi, haddan tashqari shovqin-suronli muhit.

Nutq taqlid asosida rivojlanadi. Shu sababli ayri nutqiy kamchiliklar (tallafuzning aniq emasligi, duduqlanish, nutq tempining buzilishi va boshqalar) asosida taqlid yotadi.

Kelib chiqish sabablari.

S.M.Dobrogayev (1922) nutq buzilishlari sabablari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatgan:

1. Oliy nerv faoliyati kasallikkleri.
2. Anatomik nutq apparatida patologik o'zgarishlar.
3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmaganligi.
4. Organizmning umumiy nevropatik holati.

M.Ye.Xvatsev ilk bor nutq buzilishlari sabablarini ichki va tashqi omillarga ajratdi. Shu bilan birga u organic (anatomo-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik va psixo-nevrologik sabablani ajratib ko'rsatdi.

Organik sabablarga homiladorlik davrida, tug'ruq paytida va tug'ruqdan so'ng bosh miyaning yaxshi rivojlanmasligi va jarohatlanishi, shuningdek, nutq periferik organlaridagi turli xil organik buzilishlar kiritilgan. Organic buzilishlar (miyaning jarohatlanishi) va periferik sabablarga (eshituv organi jarohatlanishi, tanglay yoriqligi va artikulatsion apparatning boshqa morfologik o'zgarishlari) ajratilgan.

Funksional sabablarni M.Ye.Xvatsev, I.P.Pavlovning ta'limoti orqali tushuntiradi. Bu ta'limot markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatini buzilishi haqida bo'lib, M.Ye.Xavtsev bu orqali organik va funksional, markaziy va periferik sabablarning o'zaro munosabati mavjudligini ta'kidlaydi.

Psixonevrologik sabablarga u aqli zaiflikni, xotira, diqqat buzilishini va boshqa psixik jarayonlar buzilishini kiritgan.

M.Ye.Xvatsev ijtimoiy-psixologik sabablarga ham katta e'tiborni qaratgan va buning ostida atrof-muhitdagi turli xil yomon ta'sirlar yo'qotganini tushuntiradi.

Nutq buzilishlarining kelib chiqishida maxsus sharoitlar katta rol o'y naydi, ya'ni nutq kamchiliklarining kelib chiqishiga yordam beruvchi to'sqinlik qiluvchi omillar. Masalan, psixik travma ta'siri ostida bola duduqlanish yuzaga kelsa, u tashqi sabab

sifatida ko'rildi. Quyidagilar esa duduqlanishning kelib chiqishi uchun qulay sharoit bo'lib xizmat qiladi: bolaning somatik zaifligi, uning nevropatik organizmi (nerv-psixik qo'zg'aluvchanlik oshganligi), markaziy nerv sistemasining erta organik jarohatlanishi asorati va h.k.

Nutq kamchiligiga ega kishilar orasida yoki nutqiy chegaralangan muhitda tarbiyalanuvchi ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishidan orqada qoladi (kar-soqov ota-onalar yoli yaqqol nutq kamchiligiga ega ota-onalar, uzoq muddat kasalxonada yotish, turli xil og'ir kasalliklar tufayli kontaktga kirishning chegaralanganligi).

Bu nutq rivojlanishini kechiktiradi, ayniqa, kuchli psixik travmalarda bolalarda psixogen nutqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi: mutism, nevrotik duduqlanish. Bu nutqiy buzilishlar M.Ye.Xvatsev tasnifi bo'yicha shartli ravishda funksional buzilishga kiritiladi.

Nutq buzilishlarining kelib chiqishlari bo'yicha moyilligi bor bolalar guruhini MMD ga ega bolalar tashkil qiladi. Nutq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash va psixik rivojlanishni barvaqt rag'batlantirish bu toifa bolalar nutqiy va aqliy rivojlanishini kechikishini ma'lum darajada yaxshilashi mumkin. Logoped va pedagog – defektolog MMD sindroming dastlabki belgilarini bilish muhim. Hayotining birinchi yilda bu sindromning asosiy belgilari "kichik nevrologik belgilar" nomi bilan yuzaga keladi: emadigan bolalarda, odatda faol harakatlarga xalaqit bermaydigan, biroq turg'unligi bilan farqlanuvchi mushak tonusining yengil buzilishi, tremor ko'rinishidagi yaqqol ifodalanmagan ixtiyorsiz harakatlar, umumiyl titroq, sensomotor rivojlanishning kechikishi(ayniqa ko'rvu-motor koordinatsiyasi,) mayda qo'l motorikasi differensiyalashgan harakatlarining rivojlanishining sekinlashuvi. Yuqoridagi barcha belgilari yengil nevrologik simptomatikada ko'rish mumkin.

Bolalarda nutq buzilishlarining kelib chiqishida miyaning erta organik jarohatlanishlari katta rol o'ynaydi.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nimaga deganda uning og'zaki (ovozi) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Xulosa: Bola nutqining normal rivojlanishi uchun muloqot ma'lum ahamiyatga ega bo'lishi, ijobiy-emotsional tusda kechishi kerak. U nega tovushlarni shundaygina eshitish kamlik qiladi (radiomagniton, televizor). Dastlab ma'lum yosh davri uchun xarakterli asosda kattalar bilan muloqot qilish lozim. Bolani kattalar bilan muloqoti shaklining o'zgarishi nutq rivojlanishiga turtki bo'ladi. Demak, hayotining birinchi yili uchun xarakterli bo'lgan emotsiyonal muloqotni 2—3 yoshlardapredmetli harakatga almashtirishi uning nutqi rivojlanishiga yaxshigina turtki bo'lib xizmat qiladi. Agarki, bunday o'zgarish yuz bermasa, u holda nutq rivojlanishida orqada qolish yuzaga

keladi. Bolada predmetli-o‘yin faoliyati jarayonida to‘plangan taassurotlar nutq rivojlanishiga dastlabki zamin bo‘lib xizmat qiladi. Bola nutqining rivojlanishi tashqi noqulay sharoitlar natijasida kechikadi va buziladi: ijobiy emotsiyonal muhitning yo‘qligi, haddan tashqari shovqin-suronli muhit. Nutq taqlid asosida rivojlanadi. Shu sababli ayrim nutqiy kamchiliklar (talaffuzning aniq emasligi, duduqlanish, nutq tempining buzilishi va boshqalar) asosida taqlid yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova R.M. Bola nutqini rivojlantirish. 2006-yil
2. Qodirova F.R. Bola nutqini rivojlantirsh. 2006-yil
3. Ayupova M.Y. Logopediya. Toshkent. 2007-yil
4. Internet saytlaridan olindi